

YANGI O‘ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING HUDUDLAR MA’NAVIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI (XATIRCHI TUMANI MISOLIDA)

Muallif: **Shodiya Ro‘ziyeva**

Xatirchi tumani Axborot-kutubxona markazi

Axborot-bibliografiya xizmati rahbari

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda kutubxonachilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, sohaga oid qonun va qarorlarning amaliy ahamiyati hamda ularning hududlar ma’naviy hayotidagi o‘rni yoritilgan. Xususan, Xatirchi tumanida zamonaviy kutubxona binosining bunyod etilishi, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar, ochiq osmon ostidagi kutubxona loyihasi, kitob fondining boyitilishi va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning yangi bosqichga ko‘tarilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kutubxona, axborot-kutubxona faoliyati, kitobxonlik, ma’naviyat, mutolaa, ma’rifat, yoshlar tarbiyasi, Xatirchi tumani, innovatsion kutubxona.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida har bir davlatning taraqqiyoti avvalo uning intellektual salohiyati, ma’naviy darajasi va yosh avlodning bilimga bo‘lgan intilishi bilan belgilanadi. Jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lgan kitob va mutolaa madaniyatini rivojlantirish esa kutubxonalar faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson qadri, uning bilim olishi, ma’naviy kamoloti va dunyoqarashini yuksaltirish masalalari turibdi. Shu nuqtai nazardan, kutubxonachilik sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, Prezidentimizning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qaror va farmonlari sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlab berdi.

Bugungi kunda kutubxonalar faqat kitob saqlanadigan maskan emas, balki zamonaviy axborot-resurs markazi, ma’naviyat o‘chog‘i, yoshlar tarbiyasi va ilmiy tafakkur shakllanadigan muhim ijtimoiy institutga aylanmoqda.

KUTUBXONACHILIK SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING MAZMUN-MOHİYATI

So‘nggi yillarda mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, aholini sifatli axborot bilan ta‘minlash va kutubxonalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Kutubxonalar faoliyatiga zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilib, elektron kataloglar va elektron kutubxonalar yaratildi. Bu esa kitobxonlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini tez va sifatli qondirish imkonini bermocda.

Shuningdek, kitob fondlarini boyitish, milliy va jahon adabiyotining sara namunalarini joylarga yetkazish, aholining barcha qatlamlari uchun teng axborot olish imkoniyatlarini yaratish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mutolaa madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan “Kitobxonlik haftaliklari”, “Mutolaa festivallari”, ijodiy uchrashuvlar, adabiy kechalar va ma‘naviy- ma‘rifiy tadbirlar yoshlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda.

XATIRCHI TUMANIDA KUTUBXONACHILIK SOHASINING YANGI BOSQICHI

Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida ham so‘nggi yillarda ma‘naviy-ma‘rifiy hayotni rivojlantirishga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ko‘p yillar davomida tumanda zamonaviy kutubxona binosining mavjud emasligi aholi, ayniqsa yoshlarning axborot va bilim olish imkoniyatlarini ma‘lum darajada cheklab kelgan edi. 2025-yilda ushbu masalaga amaliy yechim topildi. Tuman hokimi tashabbusi bilan zamonaviy va barcha qulayliklarga ega yangi Axborot-kutubxona markazi binosi qurilib foydalanishga topshirildi.

Mazkur kutubxona qisqa vaqt ichida tumanning eng muhim ma‘naviyat maskanlaridan biriga aylandi. Zamonaviy o‘quv zallari, elektron xizmatlar, kitob ko‘rgazmalari va ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar uchun yaratilgan sharoitlar kitobxonlar sonining ortishiga xizmat qilmoqda.

Yangi kutubxona binosi nafaqat bugungi avlod, balki kelajak avlodlar uchun ham ilm va ma‘rifat maskani sifatida xizmat qiladigan muhim ma‘naviy ob‘ekt hisoblanadi.

RAHBAR TASHABBUSI VA JAMOANING FIDOYI MEHNATI

Xatirchi tumani Axborot-kutubxona markazida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlarda markaz direktori Navbahor Haqnazarovanning xizmatlari alohida e‘tiborga loyiqdir.

Uning tashabbusi va rahbarligi ostida kutubxona faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, kitob fondini boyitish, kitobxonlarga sifatli xizmat ko‘rsatish hamda yoshlar o‘rtasida mutolaa madaniyatini keng targ‘ib qilish bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda.

Kutubxona jamoasi tomonidan turli ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, ijodiy uchrashuvlar, kitob taqdimotlari va kitobxonlik aksiyalari muntazam

tashkil etilmoqda. Bu esa kutubxonaning hududdagi ma'naviy-ma'rifiy markaz sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlamoqda.

OCHIQ OSMON OSTIDAGI KUTUBXONA VA “MILLIY BOG” LOYIHASI

Bugungi kunda Xatirchi tumanida amalga oshirilayotgan eng istiqbolli loyihalardan biri “Milliy bog” hududida tashkil etilayotgan ochiq osmon ostidagi kutubxona hisoblanadi.

Mazkur loyiha aholining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va mutolaani ommalashtirishga xizmat qiladi. Tabiat qo'ynida kitob mutolaa qilish imkoniyatining yaratilishi yoshlar, o'quvchilar va keng jamoatchilikning kitobga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Ochiq kutubxona zamonaviy dunyoda ma'rifatni targ'ib etishning innovatsion shakllaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI E'TIBOR VA E'TIROF

Yangi kutubxona faoliyati respublika miqyosida ham e'tirof etildi. Jumladan, [Alisher Navoiy](#) nomidagi [O'zbekiston Respublikasi](#) davlat milliy kutubxonasi direktori Umida opa Teshabayevaning Xatirchi tumaniga tashrifi kutubxona jamoasi uchun katta voqea bo'ldi.

Tashrif davomida kutubxonaning moddiy-texnik bazasi, kitob fondi, kitobxonlarga yaratilgan sharoitlar va amalga oshirilayotgan loyihalar bilan yaqindan tanishildi. Yangi kutubxona faoliyatiga berilgan yuqori baho jamoa uchun katta rag'bat bo'ldi.

Bu esa hududlarda amalga oshirilayotgan kutubxonachilik islohotlarining amaliy samarasini yaqqol namoyon etdi.

KITOB FONDINI BOYITISH – MA'RIFATGA QO'SHILGAN MUNOSIB HISSA

Kutubxona faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan uning fondi bilan belgilanadi. Boy va mazmunli fond kitobxonlarning ilmiy, ma'naviy va axborot ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xatirchi tumanidagi yangi kutubxona fondini boyitishga qaratilgan ezgu tashabbuslar ham e'tiborga molikdir.

Xususan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, journalist va siyosatshunos olim Laziz Rahmatov tomonidan kutubxonaga 100 dona badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar sovg'a qilindi.

Mazkur adabiyotlar kitobxonlarning bilim doirasini kengaytirish, ularning ma'naviy kamolotiga xizmat qilish bilan birga, kutubxona fondining yanada boyishiga munosib hissa bo'ldi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda kutubxonachilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati o'zining amaliy natijalarini bermoqda.

Sohaga oid qonunlar, qarorlar va dasturlar kutubxonalarni zamonaviy ma'naviyat va axborot markazlariga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Xatirchi tumanida yangi kutubxonaning bunyod etilishi, "Milliy bog" va ochiq osmon ostidagi kutubxona loyihalarining amalga oshirilishi, kutubxona jamoasining fidokorona mehnati, respublika miqyosidagi e'tibor hamda kitob fondining boyitilishi bu boradagi amaliy ishlarning yorqin namunasi hisoblanadi. Kelgusida ham kutubxonalarni innovatsion rivojlantirish, yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini keng targ'ib etish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasi.
4. Kutubxonashunoslik va bibliografiyashunoslik asoslari. – Toshkent. Axborot-kutubxona faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami.
5. Xatirchi tumani Axborot-kutubxona markazi faoliyatiga oid ma'lumotlar. O'zbekiston Milliy kutubxonasi materiallari.